


МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА О'YIN МЕТОДИКАСИНИ О'RNI



Sultonova Nozima Sultonovna
Oriental Universiteti "Talim menejmenti"
yo'nalishi 102-guruhan magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda o'yin metodikasini o'mni va bolalar o'yin va o'yinchoqlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan

Kalit so'zlar: Tarbiyalanuvchi, o'yinchoq, qo'g'irchoq, tarbiya, ta'lim, ertak, maktabgacha ta'lim, yozuv, milliy o'yinchoqlar, milliy qadriyatlar.

THE ROLE OF GAME METHODOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATION

Abstract: Three articles discuss the role of play methodology in preschool education and the importance of children's games and toys.

Key words: Educator, toy, doll, upbringing, education, fairy tale, preschool education, writing, national toys, national values.

Bolaning o'sishi va har tomonlama rivojlanib borishi uzlusiz davom etadigan jarayondir. Uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashy ova buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma`no topishiga intilishi, qiziqishi va hissiyotlarining rivojlanishini ular o`ynayotgan o`yinlari orqali kuzatish mumkin. Maktabgacha yoshdagи bola uchun bu - hissiy boyitilgan va idrok etilgan tarzda o`rganish uchun ideal sahnadir. Sahna o`yini bolani har jihatdan rivojlantiradi.

O'yin bolani har tomonlama har jihatdan to`g`ri tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. O'yin insonni barkamol avlod sifatida rivojlantiradi. O'yinchoq bu narsaning o`ziga xos predmeti bo`lib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yo`naltirishga ko`maklashadi. Ko`pgina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o'yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o'zları duch keladigan vaziyatlarga tushadi va ulardan qanday vaziyatlardan chiqishga o'rgatadi. Bola o'yinchoqlar bilan tanishish, o`ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar o'zları orasida bo`ladigan munosabatlari, bir-birlariga muomila madaniyatları, o'zları orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xoxlashadi. O'yinchoqlar orqali bola sizga, atrofdagilarga nima demoqchiliginini tushuntira oladi. Ular o'yinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi.

O'yinchoqlarga turli xil tasniflar mavjud bo`lib ular: Didaktik o'yinchoq, ta'limiy o'yinlar, teatr o'yini, sport o'yini va musiqiy o'yinlarga ajratiladi. Didaktik o'yinchoqlar - o'yin jarayonida bolalarga o'zlarining turmush tarzi, tabiat, har xil hodisalari haqida o'rgatadi. Bolalarning bilimini chuqurlashtiradi. Didaktik o'yinlar bolalar nutqini

rivojlantirishga katta e'tibor beradi. Ta'limiy o'yin - bolalarga o'yin orqali ta'lim-tarbiya o'rgatadi. Bunda o'yin bilan bir qatorda bilim, malaka egallanadi. Teatr o'yini - zamonaviy teatrda "o'yin" atamasi aktyor tomonidan turli ifoda vositalari – nutq, mimika, imo-ishora, har xil harakatlar orqali foydalanuvchiga yetkazib berish. Sport o'yini - bolalarni sog'lom bo'lishiga qaratilgan harakatli o'yinlar. Bolalar sport o'yinlari orqali kun bo'yи tetik, quvnoq, karfiyati a'lo bo'lib yuradi. Musiqiy o'yin - bolalar bu o'yin orqali musiqaga qiziqishini shakllantiradi. Musiqiy qobiliyatları rivojlantiradi. Bu o'yin bolalarga quvonchli va quvnoq daqiqalar beradi. Bolalarda o`yinlar orqali milliy urf-odatlarimiz ham shakllanadi. Bolalarga har bir o`yinni tushuntirish kerak.

O'yinchoqlar to mакtabga chiqqunicha bola hayotida katta o'rин egallaydi. Bolalar yoshi kichkina paytida barcha o'yinchoqlarni o'ynashga urinadi. Keyinchalik yoshi ulg'aygan sari o'yinchoqlarni saralay boshlaydi. O'zlariga ayni vaqtida nima kerakligini yon-atrofdagilarga o'yinchoqlar orqali yetkazadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik guruh (3-4 yosh) bolalariga asosan qo`lda bemalol o'ynashga mo'ljallanga o'yinchoqlar o'ynaladi. Tig'li, uchli o'yinchoqlar bola hayoti uchun xavfli o'yinchoqlar o'ynashi mumkin emas. O'rta guruhda (4-5 yosh) bolalar kichik guruhdan farqli ravishda ozgina murakkabroqdir. Unda bolalar tarbiyachi bilan birga o'yinchoqlar orqali rollar ijro etishlari mumkin. Ijro etayotgan rollari orqali bolada nutq ham rivojlanadi. Yangi so'zlar o'rganadi. Talaffuzidagi kamchiliklar ham asta-sekin to'g'irlanib boriladi. Katta guruh (5-6 yosh) bolalar bemalol o'zlar o'yinchoq o'ynashlari mumkin bo'ladi. O'zlar orasida rollar bo'lib olinib turli o'yinlar va o'yinchoqlar orqali rollar ijro etiladi. Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) bolalar endi o'yinchoqlarni bemalol tanlay oladi. Qaysi personajga qaysi o'yinchoq mos kelishini tarbiyachisiz o'zlar mustaqil tanlab ko'rsatishi mumkin.

O'yin bilan o'yinchoqni farqi shundaki, o'yin orqali bolalar o'zlar turli muhitga turlichalı moslashishni o'rganadi. O'yinda bolalar o'zlar ishtirok etadi. O'yinda bolalarni psixikasi, o'y-xayollarida nima kechayotganini bilishimiz mumkin. O'yin orqali bolalar o'rtasida nutq, muomila ma'daniyati rivojlanadi.

Qo'g'irchoqlar – inson qiyofasini aks ettirgan o'yinchoqdir. Qo'g'irchoqlar deyarli barcha qizlar, aksariyat, o'g'il bolalar uchun yasaladi. Qo'g'irchoq orqali bolalar turli kasblar haqida o'zlarida fikr shakllanadi va o'zlarini qiziqishlaridan kelib chiqib qo'g'irchoqlarni tanlab o'ynaydi. Kimdir onasi rolida bo'lsa, boshqasi qizi rolida, yana kim esa shifokor va hokazo. Go'daklik davrida bola qanday o'yinchoqga oshno tutinsa, undan ruhiy ta'sir oladi. Qo'g'irchoqlar bolalarda go'zallik, nafislik, qo'rqmaslik kabi xislatlarni shakllantiradi. Qo'g'irchoq birinchi bo'lib 150 yil oldin Amerika Qo'shma Shtatlaridan "Barbi" nomli qo'g'irchoq O'zbekistonga kelgan. Chet el qo'g'irchoqlari bizning milliyligimizdan ancha uzoqda bo'lganligi uchun bolalari kichikligidan xuddi kattalardek fikrlab, kattalarga taqlid qilishga urinishgan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin, o'zimizni milliyligimizni unutmasligimiz, hamda, milliylikni

kelajak avlodga ham yetkazishimiz uchun milliy qo'g'irchoq yaratishga har tomonlama tadbirkorlarimizga shart-sharoit yaratib berilmoqda. Yurtimizda milliy qo'g'irchoqlarga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Bu qo'g'irchoqlar orqali bolalar milliy ma'daniyatimiz, urf-odatlarimizni o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гербова В . Планирование работы по развитию речи и ознакомление с художественной литератрой // Дошкольное воспитание, 1999, № 3, с19-22.
2. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish». -T .: «O`qituvchi», 1990
3. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. -T.: 2016 y., 29-dekabr.
4. Крупская Н.К. Дошкольное воспитание. 1899. С 165.
5. Qurbonova Maftuna, Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works // Экономика и социум, 2020. №6(73), с 432-437.
6. I.V. Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o’quv dasturi, Toshkent-2018.
7. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari, Toshkent-2018.